6. Duval R. A cognitive analysis of problems of comprehension in a learning of mathematics // Educational Studies in Mathematics. — 2006. — Vol. 61. — P. 103–131.
7. Freudenthal H. Revisiting Mathematics Education: China Lectures. — Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1991.

8. Van den Heuvel-Panhuizen M., Drijvers P. Realistic Mathematics Education // Encyclopedia of Mathematics Education. — Cham: Springer, 2020. — P. 713–717.

9. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.

10. Leontiev A.N. Activity, Consciousness, and Personality. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1978.

11. Kaput J.J. Technology and mathematics education // Handbook of Research on Mathematics Teaching and Learning. — New York: Macmillan, 1992. — P. 515–556.

12. NCTM. Principles to Actions: Ensuring Mathematical Success for All. — Reston, VA: National Council of Teachers of Mathematics, 2014.

13. Tall D., Vinner S. Concept image and concept definition in mathematics with particular reference to limits and continuity // Educational Studies in Mathematics. — 1981. — Vol. 12. — P. 151–169.

14. Sfard A. On the dual nature of mathematical conceptions: Reflections on processes and objects as different sides of the same coin // Educational Studies in Mathematics. — 1991. — Vol. 22. — P. 1–36.

BADIIY MATN TARKIBIDAGI O‘XSHATISHLARDA ARABIY SO‘ZLAR ISHTIROKIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Karimova Munira Bahodir qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

munirakarimova611@.gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlardan bir bo‘lgan lingvopoetikaning muhim unsurlaridan biri tahlilga tortildi. Bu unsur tilda keng uchrovchi o‘xshatishlar bo‘lib, ularning matn tarkibidagi poetik funksiyasiga diqqat qaratildi. O‘xshatsihlarda arabiy birliklar ishlatilishiga alohida tahlilga tortildi. Xususan, arab tilshunosligida o‘xshatishlarning o‘ziga xosliklari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, estetik funksiya, ekspressivlik, tashbeh, analogiya, mushabbah, mushabbah bih.*

Аннотация. *В данной статье анализируется один из важных элементов лингвопоэтики, являющейся современным направлением лингвистики. В качестве этого элемента рассматриваются широко распространенные в языке сравнения, причем особое внимание уделяется их поэтической функции в структуре текста. Отдельному анализу подверглось использование арабских заимствований в сравнениях. В частности, исследованы специфические особенности сравнений в арабском языкознании.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, эстетическая функция, экспрессивность, ташбих, аналогия, мушаббах, мушаббах бих.*

Abstract: *This article analyzes one of the important elements of linguopoetics, which is a modern branch of linguistics. This element focuses on similes widely used in language, paying special attention to their poetic function within the text. The use of arabic-origin units in similes is subjected to a separate analysis. In particular, the specific features of similes in arabic linguistics are examined.*

Keywords: *linguopoetics, aesthetic function, expressiveness, tashbeeh, analogy, mushabbah, mushabbah bih.*

Fikrni bayon etish yo‘sini, uning tinglovchi yoki o‘quvchiga yetib borishi, ularga ta’sir ko‘rsata olishida matnda foydalanilgan til unsurlarining xizmati beqiyos. Yangi ma’lumotning retsipiyent ongida qay shaklda gavdalanishi na matn shakliga va na muallifining shaxsiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ekspressivlik xususiyati faqat va faqat matnning ma’lum tarkibiy qismlariga yuklatilgan vazifadir. Xo‘randa qarshisiga taom siniq, rangi o‘chgan, ishtaxa tortmaydigan bir idishda tortilishi ham, yohud yarqiragan, ko‘z tushsa quvnaydigan, toza va estetik bir likopda ham taqdim etilishi ehtimol. Har ikki holatda ham bu harakatning javobgari taqdim qiluvchi taraf bo‘ladi. Matnga nisbatan ham yuqoridagi ramziy misolimizni tatbiq etish mumkin. Darhaqiqat, til unsurlaridan unumli foydalanish, kerakli joylarda o‘zga til boyligiga murojaat qilish muallifning zimmasidadir.

Badiiy matnning bo‘yoqdorligini, ekpressivligini yanada kuchaytiruvchi lisoniy vositalardan biri bu o‘xshatishlar sanaladi.

“O‘xshatish – tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o‘xshatish orqali yorqin va bo‘rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo‘lib, bunda o‘xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi”[7].

Tilda o‘xshatishlar bo‘yoqdorlik va obrazlilikni kuchaytirgani sababli favqulodda poetik ifoda kuchiga ko‘ra o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi. O‘xshatishlar matn tilini jonlantirish xususiyatiga ega yagona lingvistik unsur sanaladi. Hissiy tushnchalarni, yangiliklarni, hali insoniyatga tanish bo‘lmagan yoki kam ommalashgan tushunchalarni ifoda etishda o‘xshatishlardan foydalaniladi. Bu nazarda tutilgan ma’noni to‘g‘ri, aniq va tushunarli shaklda yetib borishini tam’inlaydi. Qattiq predmetni toshga, yumshoq narsani momiq paxtaga qiyoslash orqali o‘quvchi tasavvurida hali his etib, ushlab ko‘rilmagan narsalarini idrok eta olish imkoni mavjud bo‘ladi.

Umumiy tilshunoslik nazariyasiga ko‘ra o‘xshatishlar ikki asosiy turga bo‘linadi:

1) Individual – muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar;
2) Umumxalq yoki turg‘un o‘xshatishlar[8].

O‘xshatishlarning birinchi turi ijodkorning badiiy va lingvistik mahoratini

[7] Quronov D. va boshqalar. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 54.

[8] O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – B. 5.


namoyon etish uchun cheksiz imkon taqdim etadi. Aslida o‘xshatishlarning ayna shu erkin turi juda qiziq va rang-barangdir. Har bir inson o‘ziga xos individual xarakter va dunyoqarash sohibi ekani e’tiboridan uning tafakkur mahsuli bo‘lmish erkin o‘xshatishlar ham biri ikkinchisini takror etmaydigan shaklda bo‘ladi. Bunday muallif o‘xshatishlari badiiy asarning lisoniy qiymatini oshiradi.

Aslida ilmiy-nazariy manbalarda “o‘xshatish”, “tashbeh”, “qiyos”, “analogiya” kabi atamalar o‘zaro yonma-yon qo‘llaniladi.

Arab tilshunosligi, adabiyotshunsoligi va balog‘at ilmida o‘xshatish juda chuqur o‘rganilgan dolzarb tadqiqot mavzusi sanaladi. Lug‘aviy jihatdan شبه o‘zagidan kelib chiqqan “tashbeh” arabcha so‘z bo‘lib, “o‘xshatish”, “qiyoslash” kabi ma’nolarni anglatadi. Tashbehning eng go‘zal namunalarini, shubhasiz, Qur’oni Karim oyatlari tarkibida uchrashi arab olimi Abdulloh ibn Mu’tazz (861-908) ning “Badiiy san’atlar” kitobida misol sifatida keltiriladi[9].

Balog‘at termini sifatida *tashbeh* talaffuzda mavjud bo‘lgan yoki bo‘lmagan “kof – ك” kabi omil vositasida bir yohud bir nechta narsani boshqa narsalar bilan mushtarak sifatlarga ega bo‘lishini bayon etishdir[10].

Demak, tashbeh boshqa lingvopoetik unsurlardan farqli o‘laroq o‘rganilayotgan masalaning har ikki tarafini e’tiborga olishni talab etadi. Aynan o‘xshatishni bir koordinatalar o‘qiga joylashtiradigan bo‘lsak, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:



[9] Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поетикаси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 304.

[10] علي الجارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. – كراتشي: 2010. – ص.134.

Aslida tashbehning to‘rt unsuri mavjduligi balog‘atga oid ilmiy manbalarda ko‘rsatiladi. Ular quyidagilar:

1) المشبه- o‘xshayotgan
2) المشبه به - o‘xshatilgan
3) أداة التشبيه - tashbeh vositasi
4) وجه الشبه - o‘xshatish usuli

Bu to‘rt unsurning har biri matn tarkibida o‘ziga xos vazifaga ega hisoblanadi.

Ilmi badi’da tashbeh tuzilishi, qiyoslanayotgan narsa-tushunchalar orasidagi o‘xshashlik darajasiga ko‘ra, yana bir qancha turlarga bo‘linadi. Ular quyidagilar:

1. تشبيه عكس (tashbehi aks) – teskari o‘xshatish;
2. تشبيه اضمار (tashbehi izmor) – yashirin o‘xshatish;
3. تشبيه كناية (tashbehi kinoyat) – ko‘chimli o‘xshatish;
4. تشبيه مشروط (tashbehi mashrut) – shartlangan o‘xshatish;
5. تشبيه مجمل (tashbehi mujmal) – noaniq o‘xshatish;
6. تشبيه مسلسل (tashbehi musalsal) – ketma-ket o‘xshatish;
7. تشبيه مطلق (tashbehi mutlaq) – ochiq o‘xshatish;
8. تشبيه مفصل (tashbehi mufassal) – to‘liq o‘xshatish;
9. تشبيه معقد (tashbehi mu’aqqad) – noaniq o‘xshatish;
10. تشبيه موكد (tashbehi mu’kkad) – ta’kidli o‘xshatish;
11. تشبيه تفضيل (tashbehi tafzil) – chekinish yo‘li bilan o‘xshatish.

Tashbeh bir qarashda sodda va qiziq jarayon bo‘lib ko‘rinadi. Ammo tashbeh yuzaga kelishi, muallifning o‘quvchiga ayni maqsadni ifoda eta olishi shart etib qo‘yiladi. O‘xshashlikni ko‘rsatishda odatda inson sezgi organlari orqali idrok eta oluvchi xususiyatlar nazarda tutiladi.

Sakkokiy “Miftahul ulum” asarida “mushabbah” va “mushabbah bih” borasida atroflicha so‘z yuritib, bu ikki unsurning aslida bir-biri bilan mutanosib ekanini, faqatgina daqiq nuqtalarda farqlanishini ta’kidlaydi[11]. Shunisi e’tiborliki, tashbehni qabul qilishga doir yana qator vaziyatlarni sanab o‘tadi:

“His qilish orqali idrok etish”. Bunda nazarda tutilgan tashbeh unsurlarini sezgi organlari orqali anglash mumkin. Sakkokiy aynan shu nuqtada yuzni oyga qiyos qilinishini misol sifatida keltirib o‘tadi. Darhaqiqat, yuzni ham, ko‘kdagi oyni ham

[11] أبو بكر محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم. – بيروت, 2001. – ص. 211.

inson ko‘zi orqali ilg‘ashi mumkin. Ikki tarafni ham ko‘rib turib, ulardagi o‘xshashlik darajasini aniqlashning imkoni ham mavjud.

“Tasavvur orqali idrok” – bunda inson bu dunyoda mavjud bo‘lmagan narsalarni tasavvur etish orqali tashbehning asl mazmunini tushuna oladi. O‘xshatilayotgan taraf aslida mavjud bo‘lib, o‘xshayotgan taraf mubolag‘ali tarzda ifoda etilganda, aynan tasavvur ishga tushadi. Shu orqali muallif nazarda tutgan ma’no o‘quvchiga yetib boradi.

“Ong bilan idork etish” – bu xususda Sakkokiy aniq ma’lumotlarga tayangan holda tashbehni tushunishni nazarda tutadi.

O‘xshatishlaning badiiy matn tarkibidagi lingvopoetik qiymati xususida so‘z borar ekan, M.Yo‘ldoshev o‘zining badiiy matn va uning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan monografiyasida har qanday o‘xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘zi o‘ngida go‘zal bo‘yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo‘lishini ta’kidlagan[12].

Demak, badiiy matnning lisoniy tahlilida bu ikki birlikni bir-biridan alohida tahlilga tortih maqsadga muvofiq sanaladi.

Tilshunos olimlar tashbehdan foydalanish orqali ma’lum bir maqsadlar nazarda tutilishini e’tirof etishadi:

a) mushabbahga isnod bo‘lgan narsaning aslida mavjud ekanini ta’kidlash;
b) mushabbahning holatini ochiqlab berish
c) mushabbah holatining darajasini ko‘rsatish
d) mushabbah holatini ongli ravishda anglash
e) mushabbahni ma’lum uslubiy unsurlar bilan go‘zallashtirib, jumlani balig‘ holga keltirish shular jumlasidandir.[13]

Tashbehning ikki asosiy qismi bo‘lgan mushabbaha va mushabbaha bihi aslida ikki bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalar ekani ayrim manbalarda namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda o‘rinli bir savol tug‘iladi: bir-biriga semantik va morfologik bog‘liqlikda bo‘lmagan ikki tushuncha o‘xshatish orqali o‘zaro aloqaga kirishgach ularning ma’no qatlamida ham birikish yuz beradimi? Aslida ushbu savol tashbehning

[12] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 25.
[13] Erog‘lu Y. Arap belagatinde kinaye ve istiare. – Erzurum: SBE, 2007. – S. 26.

ikki unsuri borasidagi juda qadimiy bahs mavzusidir. Bu borada olimlar turli fikrlarni bildirishgan. Jumladan Jurjoniy shunday deydilar:

“Shoirlar, olimlar va balog‘atchilar ba’zan insonni oyga, quyoshga, yomg‘irga, dengizga, sherga, qilichga, ilonga va yulduzga qiyos etishadi. Biroq, bu qiyoslardan foydalanar ekanlar kishining asl ma’no-mazmunini, ya’ni insonligini bu tashbehlardan ortga surib qo‘ymaydilar. Qoralash va tahqirlash uchun it, to‘ng‘iz, maymun, eshak, ho‘kiz, echki, tulki, chayon va buzoq kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu o‘rinda ham ayni shaklda insonni bu jonzotlarga aylantirib, undagi asl fitrat bo‘lmish shaxs tushunchasini yo‘q qila olmaydilar”[14].

Demak, o‘xshatish vaqtinchalik yuz beruvchi holat. Bu vaziyatni kimyoviy unsurlarning o‘zaro reaksiyaga kirishish jarayoniga ham qiyoslash mumkin. Ma’lum bir kimyoviy moddalar bir-biriga qorishtirilganda bir zumda inson ko‘z o‘ngida rang o‘zgarishi, tutun chiqishi, portlash kabi holatlar yuz beradi. Biroq ma’lum soniyalardan so‘ng bu reaksiya tugab moddalar asliyatiga qaytishi mumkin. Tahbehda ham ayni holat yuz beradi. Mushabbah va mushabbah bihidan muallif matn tarkibida foydalanar ekan, ular shu kontekst ichkarisidagina aloqaga kirishib ma’lum semantik xususiyat kasb etadi. Lekin asliyatda ular o‘z holat, shakl va mazmunlarida sobit qoladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erog‘lu Y. Arap belagatinde kinaye ve istiare. – Erzurum: SBE, 2007.
2. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
3. Quronov D. va boshqalar. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поетикаси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2006.
6. أبو بكر محمد بن علي السكاكي. مفتاح العلوم. – بيروت, 2001.
7. عبد القهار الجرجاني. أسرار البلاغة. – بيروت: 1988.
8. علي الجارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. – كراتشي: 2010.

[14] عبد القهار الجرجاني. أسرار البلاغة. – بيروت: 1988. – ص. 209.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Mingbayeva Maqsuda Keldiyor qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitining zamonaviy imkoniyatlari va uning ta'lim oluvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Maqolada gamifikatsiya, sun'iy intellektga asoslangan platformalar, virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari, loyihaviy-tadqiqot faoliyati, STEAM yondashuvi hamda raqamli ijod va hamkorlik vositalari (multimedia, dizayn va dasturlash platformalari) kreativlikni rivojlantiruvchi asosiy vositalar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu vositalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari, mumkin bo'lgan xavf va cheklovlar, xorijiy va milliy tajriba, hamda kreativlikni baholash mezonlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar, metodistlar va ta'lim menejerlari uchun amaliy tavsiyalar shaklida umumlashtiriladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, kreativlik, gamifikatsiya, sun'iy intellekt, virtual reallik, to'ldirilgan reallik, STEAM ta'lim, loyihaviy faoliyat, raqamli kompetentsiya, tanqidiy tafakkur.*

Kirish

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoat inqilobining to'rtinchi bosqichi — raqamlashtirish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar davri — mehnat bozorida talab etiladigan ko'nikmalar tarkibini tubdan o'zgartirmoqda. XXI asr ko'nikmalari qatorida kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, hamkorlikda ishlash va raqamli savodxonlik alohida o'rin egallaydi. Xalqaro tashkilotlarning (YuNESKO, OECD) hisobotlarida ham ta'kidlanishicha, kelajakda mashina va sun'iy intellekt osonlikcha bajara olmaydigan yagona inson qobiliyati — bu ijodiy fikrlash va yangi g'oyalar generatsiya qilish qobiliyatidir.

Ta'lim oluvchilarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy zaruratga ham aylanmoqda, chunki kelajak mutaxassislari nostandart vaziyatlarda tez va samarali yechim topa oladigan, yangi g'oyalar yarata oladigan, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan shaxslar bo'lishi talab etiladi. Ayni paytda an'anaviy ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish ko'pincha ikkinchi darajali vazifa sifatida qaralib, asosiy e'tibor tayyor bilimlarni yodlash va standart topshiriqlarni bajarishga qaratilgan edi. Bu holat zamonaviy talablar bilan ziddiyatga kirmoqda.

Raqamli ta'lim muhiti — bu an'anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy texnologik vositalar bilan uyg'unlashtirgan, moslashuvchan, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim maydoni bo'lib, u ta'lim oluvchiga faqat tayyor bilim uzatish emas, balki mustaqil izlanish, tajriba o'tkazish, xato qilish va qayta urinish, hamda ijodiy loyihalar yaratish imkonini beradi. Bunday muhitning asosiy xususiyati — uning ochiqligi va moslashuvchanligidir: bir xil o'quv materiali turli o'quvchilar tomonidan turlicha ijodiy shaklda qayta ishlanishi va taqdim etilishi mumkin.

Shu bois raqamli muhitda kreativlikni shakllantiruvchi vositalarni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, ularning psixologik-pedagogik asoslarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli ta'lim islohotlari, jumladan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish vazifalari bilan ham bevosita bog'liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli ta'lim muhitida qo'llaniladigan, ta'lim oluvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalarni tizimli tahlil qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash, hamda amaliyotga tatbiq etishning pedagogik yo'nalishlari va tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: kreativlik tushunchasining zamonaviy pedagogik talqinini ko'rib chiqish; raqamli vositalarning tasnifini taqdim etish; ularning har birining kreativlikka ta'sir mexanizmini ochib berish; tatbiq etishdagi xavf-xatarlarni aniqlash; va amaliy tavsiyalar shakllantirish.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud raqamli ta'lim platformalarining funksional imkoniyatlarini qiyosiy o'rganish, hamda xorijiy va milliy pedagogik tajribani umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kreativlikni rivojlantirishga oid nazariy modellar (masalan, Torrans testi asosidagi kreativlik ko'rsatkichlari, Amabile'ning komponentli modeli) raqamli vositalar ta'siri

nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Bu yondashuv maqolada keltirilgan xulosalarning nazariy asoslanganligini ta'minlaydi.

Kreativlik pedagogik-psixologik adabiyotda yangi, original va ijtimoiy ahamiyatga ega g'oya yoki mahsulot yaratish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. J. Gilford kreativlikni "divergent tafakkur" tushunchasi orqali izohlagan bo'lib, unga ko'ra ijodiy shaxs bir masalaga bir nechta muqobil yechimlar taklif qila oladi. T. Amabile esa kreativlikni uch komponent — soha bo'yicha bilim va ko'nikmalar, ijodiy fikrlash ko'nikmalari va ichki motivatsiya — o'zaro ta'siri natijasi sifatida ko'rsatadi. Ushbu nazariy yondashuvlar raqamli vositalarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir vosita yuqoridagi komponentlardan biriga yoki bir nechtasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: masalan, gamifikatsiya ko'proq ichki motivatsiyani, sun'iy intellekt vositalari esa divergent tafakkurni rag'batlantiradi.

Asosiy qism

Gamifikatsiya — o'yin elementlarini (ball to'plash, darajalar, mukofotlar, reyting jadvallari, virtual nishonlar) o'quv jarayoniga tatbiq etish usuli bo'lib, u ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularni nostandart yechimlar izlashga undaydi. Kahoot, ClassDots, LearningApps, Quizizz kabi platformalar o'quvchilarga o'z bilimlarini interaktiv tarzda sinash, jamoaviy topshiriqlarni ijodiy yondashuv orqali bajarish imkonini beradi. O'yin mexanikasi xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqmaslik muhitini yaratadi, bu esa kreativ fikrlash uchun zarur bo'lgan erkin eksperiment qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Gamifikatsiyaning kreativlikka ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omil — bu "boshqotirma" va "ochiq yakunli" (open-ended) topshiriqlarning mavjudligidir. Bunday topshiriqlarda bitta "to'g'ri" javob emas, balki bir nechta muqobil yechim yo'llari mavjud bo'lib, o'quvchi o'z strategiyasini mustaqil tanlaydi. Masalan, ta'limiy kompyuter o'yinlarida qahramonni maqsadga eltuvchi yo'lni loyihalashtirish yoki resurslarni tejamkorlik bilan taqsimlash kabi vazifalar strategik va ijodiy tafakkurni bir vaqtda rivojlantiradi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sohasiga faol kirib bormoqda. Matn, tasvir va audio generatsiya qiluvchi platformalar ta'lim oluvchilarga g'oyalarni tezkor vizuallashtirish, muqobil variantlarni sinab ko'rish va ijodiy loyihalarni boyitish imkonini beradi. Bunday vositalar o'quvchini tayyor javob izlashdan emas, balki savol qo'yish, gipoteza ilgari surish va natijani tanqidiy baholash jarayoniga jalb qiladi, bu esa kreativlikning muhim tarkibiy qismidir.

Sun'iy intellektning yana bir muhim jihati — u o'quvchi uchun "ijodiy hamkor" (co-creator) vazifasini bajarishi mumkinligidir. Masalan, insho yozishda dastlabki g'oyalar ro'yxatini generatsiya qilish, she'riy asar uchun turli metaforalarni taklif qilish yoki ilmiy loyiha uchun muqobil gipotezalarni shakllantirish jarayonida sun'iy intellekt o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi. Shu bilan birga, bunday vositalardan foydalanishda tanqidiy yondashuvni saqlab qolish, ya'ni taklif etilgan variantlarni shunchaki nusxalash emas, balki ularni qayta ishlash va o'zlashtirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Virtual reallik (VR) va to'ldirilgan reallik (AR) texnologiyalari o'quvchilarga real dunyoda amalga oshirish qiyin yoki xavfli bo'lgan tajribalarni xavfsiz raqamli muhitda simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, tarixiy voqealarni "jonli" kuzatish, molekulyar tuzilmalarni uch o'lchamli ko'rish yoki me'moriy loyihalarni virtual makonda yaratish o'quvchida fazoviy tasavvur va assotsiativ tafakkurni rivojlantiradi, bu esa kreativ yondashuvning muhim negizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, VR/AR texnologiyalari "immersiv hikoyachilik" (immersive storytelling) imkoniyatini yaratadi — o'quvchi nafaqat tomoshabin, balki voqealar ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa hissiy jalb qilinganlikni oshirib, o'quvchining o'z tajribasi asosida yangi g'oyalar, syujetlar va yechimlar yaratishiga turtki beradi. Masalan, virtual laboratoriyalarda kimyoviy tajribalarni xavfsiz sharoitda "sinab ko'rish" o'quvchiga cheklovlarsiz eksperiment o'tkazish, natijada esa nostandart farazlarni tekshirish imkonini beradi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi fanlararo integratsiyaga asoslangan bo'lib, unda san'at (Arts) elementining kiritilishi texnik bilimlarni estetik va ijodiy nuqtai nazardan qayta ishlashga xizmat qiladi. Raqamli muhitda amalga oshiriladigan loyihaviy topshiriqlar — masalan, robototexnika, 3D-modellashtirish, raqamli dizayn, dasturlash orqali animatsiya yaratish — o'quvchilarni nazariy bilimlarni amaliy mahsulotga aylantirishga undaydi. Bunday faoliyat jarayonida o'quvchi g'oyani shakllantirish, prototip yaratish va uni takomillashtirish bosqichlarini mustaqil bosib o'tadi.

Loyihaviy faoliyatning muhim afzalligi shundaki, u "dizaynerlik tafakkuri" (design thinking) metodologiyasiga asoslanadi: muammoni empatiya bilan anglash, uni aniq shakllantirish, g'oyalar generatsiya qilish, prototip yaratish va uni sinovdan o'tkazish bosqichlari o'quvchida tizimli ijodiy jarayonni shakllantiradi. Raqamli vositalar (masalan, Tinkercad, Scratch, Blender kabi dasturlar) ushbu bosqichlarning

har birini tezlashtiradi va o'quvchiga natijani tezkor ko'rish, xatolarni darhol tuzatish imkonini beradi.

Multimedia tahrirlash dasturlari, raqamli chizuv va dizayn platformalari, hamkorlikdagi onlayn taxtalar (masalan, Padlet, Canva, Miro kabi vositalar) o'quvchilarga o'z g'oyalarini vizual, audial va matnli shaklda ifodalash imkonini beradi. Bunday platformalarning muhim afzalligi — ular jamoaviy ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, turli fikrlarning birlashishi orqali yangi, sinergik g'oyalarning tug'ilishiga zamin yaratadi.

Hamkorlikdagi raqamli platformalar, shuningdek, "tarqoq kreativlik" (distributed creativity) hodisasini yuzaga keltiradi — bunda ijodiy mahsulot bir shaxsning emas, balki jamoa a'zolarining birgalikdagi hissasi natijasida shakllanadi. Bu jarayon o'quvchilarda boshqalarning fikrini tinglash, o'z g'oyasini asoslash va muqobil takliflarni qabul qilish kabi ijtimoiy-kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantiradi, bu esa zamonaviy ijodiy faoliyatning ajralmas qismidir.

Raqamli hikoyachilik (digital storytelling) — video, audio, animatsiya va infografika elementlarini birlashtirgan holda hikoya yaratish jarayoni bo'lib, u o'quvchiga o'z fikrini turli formatlarda ifodalash erkinligini beradi. Bunday faoliyat orqali o'quvchi nafaqat matn, balki vizual va audial til orqali ham ijodiy fikrlashni o'rganadi. Podkast yaratish, qisqa videoroliklar (masalan, ta'limiy "vlog"lar) tayyorlash, infografika loyihalash kabi topshiriqlar o'quvchini axborotni tanlash, tizimlashtirish va original shaklda taqdim etishga o'rgatadi, bu esa media-savodxonlik va kreativlikning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

Xorijiy ta'lim tizimlarida raqamli vositalar orqali kreativlikni rivojlantirish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Finlyandiya ta'lim tizimida fanlararo "hodisaviy ta'lim" (phenomenon-based learning) yondashuvi raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilib, o'quvchilar real hayotiy muammolarni loyihaviy shaklda hal qilishadi. Janubiy Koreya va Singapur maktablarida esa STEAM laboratoriyalari va raqamli "maker-space"lar keng joriy etilgan bo'lib, bu yerda o'quvchilar 3D-printer, robototexnika to'plamlari va dasturlash muhitlari yordamida o'z ixtirolarini yaratish imkoniga ega.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlash, IT-park va "yoshlar innovatsion markazlari" tarmog'ini kengaytirish, hamda maktab va oliy ta'lim dasturlariga raqamli kompetentsiya va loyihaviy faoliyat elementlarini

kiritish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ushbu tajribani tizimli tahlil qilish va uni milliy ta'lim standartlariga integratsiya qilish metodikasini ilmiy asoslash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Raqamli muhitda shakllangan kreativlikni baholash an'anaviy baholash tizimlaridan farqli yondashuvni talab qiladi. Ilmiy adabiyotda kreativ mahsulotni baholashning to'rtta asosiy mezoni ajratiladi: ravonlik (fluency) — g'oyalar sonining ko'pligi; moslashuvchanlik (flexibility) — turli yo'nalishdagi g'oyalarni taklif qila olish; originallik (originality) — g'oyaning betakrorligi; va ishlab chiqilganlik (elaboration) — g'oyaning batafsil va puxta ishlanganligi. Raqamli portfoliolar, loyiha taqdimotlari va refleksiv kundaliklar ushbu mezonlar asosida baholashni amalga oshirishning qulay vositalari hisoblanadi.

Shuningdek, formativ baholash (formative assessment) usullari — jarayon davomida o'quvchiga tezkor fikr-mulohaza berish, o'zaro baholash (peer assessment) va o'z-o'zini baholash (self-assessment) — raqamli platformalarda avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi mumkin, bu esa o'quvchining ijodiy jarayonini uzluksiz kuzatib borish va vaqtida yo'naltirish imkonini beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan vositalarning samarali natija berishi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq: birinchidan, o'qituvchining raqamli kompetentsiyasi yuqori bo'lishi, ya'ni u nafaqat vositalardan foydalana olishi, balki ularni aniq pedagogik maqsadlarga bo'ysundira olishi lozim; ikkinchidan, texnologik vositalar tasodifiy emas, balki o'quv dasturining maqsad va vazifalariga mos ravishda tanlanishi kerak; uchinchidan, baholash tizimi faqat yakuniy natijani emas, balki ijodiy jarayonning o'zini — g'oyalarni izlash, sinab ko'rish va takomillashtirish bosqichlarini ham hisobga olishi zarur.

To'rtinchidan, o'quvchilarga xato qilish va qayta urinish uchun psixologik xavfsiz muhit yaratilishi, ya'ni xatoni jazolash emas, balki uni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish madaniyati shakllantirilishi zarur. Beshinchidan, raqamli vositalardan foydalanishda me'yor saqlanishi, ya'ni ekran vaqti va an'anaviy, jonli muloqotga asoslangan ijodiy faoliyat o'rtasida muvozanat ta'minlanishi lozim. Oltinchidan, ota-onalar va ta'lim muassasasi rahbariyati bilan hamkorlikda raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha yagona strategik yondashuv ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhiti kreativlikni shakllantirish uchun keng va ko'p qirrali imkoniyatlar taqdim etadi. Gamifikatsiya, sun'iy intellekt vositalari, virtual va to'ldirilgan reallik, STEAM yondashuvi, raqamli hikoyachilik hamda raqamli hamkorlik platformalari o'quvchilarning ijodiy salohiyatini — ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqilganlik kabi barcha komponentlari bo'yicha — har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu vositalarning samaradorligi ularning texnik jihatdan mavjudligiga emas, balki pedagogik jihatdan to'g'ri, maqsadli va me'yorida tatbiq etilishiga bog'liq. Vositalarni tanlashda o'quv maqsadlaridan kelib chiqish, o'qituvchining raqamli kompetentsiyasini muntazam oshirib borish, baholash tizimini jarayon-yo'naltirilgan qilib qurish, hamda kognitiv qaramlik va raqamli tengsizlik kabi xavflarning oldini olish zarur.

Kelgusi tadqiqotlarda raqamli vositalarni milliy ta'lim tizimining xususiyatlari, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda mahalliy madaniy kontekstni hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etish metodikasini ishlab chiqish, shuningdek ularning uzoq muddatli ta'sirini empirik tadqiqotlar orqali baholash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qoladi. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar nafaqat pedagogika fani, balki mamlakat ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2. Тошпулатова M. Paqamli ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri. – Toshkent: Fan, 2022.

3. Xolmatova Z. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.

4. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Capstone, 2017.

5. Mishra P., Koehler M. TPACK: Technological Pedagogical Content Knowledge Framework. – Handbook of Technological Pedagogical Content Knowledge, 2019.

6. Amabile T. Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. – Westview Press, 1996.

7. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – McGraw-Hill, 1967.

8. Yo'ldoshev J. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

MATEMATIK BILIMLARNI YANGI KASBIY VAZIYATLARGA KO‘CHIRISH INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
umurbekqushmurotov11@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada matematik bilimlarni yangi kasbiy vaziyatlarga ko‘chirishning inson kapitalini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati ochib beriladi. Bilimlarni ko‘chirish avval o‘zlashtirilgan tushuncha, munosabat va faoliyat usullarini yangi vazifaning shartlariga moslashtirib qo‘llash jarayoni sifatida tavsiflanadi. Nazariy tahlil asosida ko‘chirishning muvaffaqiyati tushunchalarni mazmunli o‘zlashtirish, vaziyatlarning umumiy matematik tuzilishini aniqlash, modelning qo‘llanish shartlarini tekshirish va refleksiv baholash bilan bog‘lanadi. Matematik bilimlarni kasbiy faoliyatga tatbiq etishga yo‘naltirilgan olti bosqichli metodika hamda differensial hisobga oid topshiriqlar ketma-ketligi taklif etiladi. Natijalarni baholash mezonlari va metodikaning amaliy qo‘llanish shartlari belgilanadi. Maqola nazariy-metodik xarakterga ega; undagi takliflar keyingi empirik tadqiqot uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, matematik bilim, bilimlarni ko‘chirish, kasbiy vaziyat, matematik modellashtirish, refleksiya.*

Abstract. *The article highlights the pedagogical importance of transferring mathematical knowledge to new professional situations in the development of human capital. Knowledge transfer is characterized as the process of applying previously acquired concepts, relations, and methods of activity by adapting them to the conditions of a new task. Based on theoretical analysis, the success of transfer is linked to the meaningful assimilation of concepts, the identification of the general mathematical structure of situations, the verification of the model's application conditions, and reflective evaluation. A six-stage methodology aimed at applying mathematical knowledge in professional activity and a sequence of differential calculus tasks are proposed. The criteria for evaluating results and the conditions for the practical application of the methodology are established. The article is of a theoretical and methodological nature; its proposals serve as the basis for further empirical research.*

Keywords: *human capital, mathematical knowledge, transfer of knowledge, professional situation, mathematical modeling, reflection.*

Аннотация. *В статье раскрывается педагогическая значимость переноса математических знаний в новые профессиональные ситуации для развития человеческого капитала. Перенос знаний рассматривается как процесс применения ранее усвоенных понятий, отношений и способов деятельности с их адаптацией к условиям новой задачи. На основе теоретического анализа успех переноса связывается с осмысленным усвоением понятий, определением общей математической структуры ситуаций, проверкой условий применения модели и рефлексивной оценкой. Предлагается шестиэтапная методика, направленная на применение математических знаний в профессиональной деятельности, а также последовательность заданий по дифференциальному исчислению. Определяются критерии оценки результатов и условия практического применения методики. Статья носит теоретико-методический характер; содержащиеся в ней предложения послужат основой для дальнейших эмпирических исследований.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, математические знания, перенос знаний, профессиональная ситуация, математическое моделирование, рефлексия.*

Kirish

Inson kapitalini rivojlantirish oliy ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Jahon banki inson kapitalini insonlarning hayoti davomida shakllanadigan, ularning samarali faoliyat yuritishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va salomatlik majmui sifatida tavsiflaydi [1]. Mazkur yondashuv ta’lim natijalarini talabaning o‘zlashtirgan bilimlari, ulardan foydalanish imkoniyatlari va yangi faoliyat sharoitlariga moslashish tayyorgarligi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Matematik ta’lim inson kapitalining bilim va ko‘nikmalarga oid tarkibini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Matematik tushunchalar va usullar miqdoriy axborotni tahlil qilish, jarayonlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, muqobil yechimlarni taqqoslash va qarorlarni asoslash imkonini beradi. OECDning kattalar ko‘nikmalariga bag‘ishlangan xalqaro tadqiqotida matematik savodxonlik va o‘zgaruvchan vaziyatlarda muammolarni hal qilish shaxsiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanish uchun muhim ko‘nikmalar sifatida qaraladi [2].

Oliy ta’limda matematik tayyorgarlikning kasbiy ahamiyati talabaning o‘rgangan usulidan yangi vazifada foydalana olishida namoyon bo‘ladi. Masalan, hosilani hisoblashni bilgan talaba ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish vazifasida qaysi

funksiyani tuzish, nimani optimallashtirish va qanday cheklovlarni hisobga olish kerakligini ham aniqlashi lozim. Xuddi shuningdek, tenglamalar sistemasini yecha olish kasbiy vaziyatdagi noma'lumlar va ular orasidagi munosabatlarni mustaqil belgilash bilan birlashgandagina amaliy mazmun kasb etadi.

Shu sababli matematik bilimlarni yangi kasbiy vaziyatlarga ko'chirishni maxsus tashkil etiladigan o'quv faoliyati sifatida o'rganish zarur. *How People Learn* ilmiy umumlashtiruvchi asarida bilimlarni ko'chirish bir sharoitda o'rganilgan bilimlardan yangi sharoitlarda foydalanish imkoniyati sifatida tavsiflanadi. Bunda tushunib o'rganish, bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash va umumiy prinsiplarni ajratishning ahamiyati ko'rsatiladi [3].

Maqolaning maqsadi - matematik bilimlarni yangi kasbiy vaziyatlarga ko'chirishning nazariy-metodik asoslarini ochib berish, uni rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini taklif etish va inson kapitali bilan bog'liqligini pedagogik jihatdan asoslash.

Tadqiqot metodlari va nazariy asoslar

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, matematik topshiriqlarning tuzilmaviy tahlili va didaktik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar asosida bilimlarni ko'chirish tushunchasi aniqlashtirildi, matematik va kasbiy vazifalarning umumiy hamda farqli jihatlari ajratildi. Didaktik modellashtirish orqali topshiriqlar ketma-ketligi va baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Maqolada **matematik bilimlarni yangi kasbiy vaziyatga ko'chirish** talabaning avval o'zlashtirgan tushuncha, teorema, munosabat va usullarni yangi vazifaning mazmuni hamda cheklovlariga moslashtirib qo'llashi sifatida tushuniladi. Bu jarayon zarur bilimni tanish, uni xotiradan faollashtirish, vaziyatga mos model tuzish, yechimni topish va natijani kasbiy mazmunda baholashni qamrab oladi.

S. M. Barnett va S. J. Ceci bilimlarni ko'chirishni baholashda uning turli o'lchovlarini aniqlashtirish zarurligini asoslaydi. Ularning tasnifi ko'chirishni mazmun va kontekst o'zgarishlari bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi [4]. Shu asosda mazkur maqolada topshiriqning yangiligi mavzu, ifodalash shakli, maqsad, cheklovlar va bajarishda beriladigan yordam darajasi orqali tavsiflanadi.

Bilimlarni ko'chirishning metodik shartlaridan biri yechim qadamlarini umumiy matematik prinsiplar bilan bog'lab izohlashdir. A. Renkl va A. Eitel o'z-o'ziga izohlashga bag'ishlangan ishida talabaning bajarilgan qadam bilan tegishli prinsip o'rtasidagi munosabatni ochishi tushunish va yangi masalalarda qo'llash uchun muhimligini ta'kidlaydi [5]. Mazkur qarash topshiriqlarga "Nima uchun shu usul tanlandi?" va "Qaysi shart o'zgarsa, bu usulni qayta ko'rib chiqish kerak?" kabi savollarni kiritishga asos bo'ladi.

Shuningdek, R. M. Turgunbayevning tezaurusli yondashuvga oid ishida o‘quv tezaurusi tushunchalar, faoliyat usullari va asosiy masalalar tizimini, talaba leksikoni esa matematik bilim, ko‘nikma, tajriba va qadriyatli munosabatlarni qamrab olishi ko‘rsatiladi [6, 93–95-b.]. Ushbu yondashuvga tayangan holda bilimlarni ko‘chirish talaba leksikonidagi mavjud vositalarni yangi vazifa uchun qayta tashkil etish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Asosiy qism

Bilimlarni ko‘chirish va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlik

Matematik bilimlarning inson kapitaliga qo‘shadigan hissasi ulardan faoliyatda foydalanish imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Talabaning bilimlarni yangi vaziyatga ko‘chira olishi quyidagi faoliyatlarda ifodalanadi:

- yangi vazifaning muhim shartlarini ajratish;
- mavjud bilimlardan mosini tanlash;
- yechim usulini o‘zgargan sharoitga moslashtirish;
- olingan natijaning ma’nosi va chegaralarini tushuntirish;
- yetishmayotgan bilimni aniqlab, uni o‘zlashtirish.

Maqolada ushbu faoliyatlar inson kapitalining kasbiy moslashuvchanlik, mustaqil o‘rganish va asoslangan qaror qabul qilish bilan bog‘liq tarkiblarini rivojlantirishning pedagogik shartlari sifatida qaraladi. Ularning mehnat unumdorligiga ta’siri esa kasbiy muhit, ish sharoiti va egallangan ko‘nikmalardan foydalanish imkoniyatlariga ham bog‘liq.

Ko‘chirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni loyihalash

Topshiriqning kasbiy mazmuni matematik modelni tanlash yoki yechimni baholashga ta’sir qilishi lozim. Masalan, tayyor funksiyaning hosilasini hisoblash topshirig‘iga korxona nomini qo‘shishning o‘zi yangi kasbiy vaziyat yaratmaydi. Talaba maqsad funksiyasini tanlashi, o‘zgaruvchining ruxsat etilgan qiymatlarini aniqlashi yoki natijani amaliy talablar bilan solishtirishi kerak.

Topshiriqlarni quyidagi ketma-ketlikda murakkablashtirish taklif etiladi:

Bosqich	**Topshiriqdagi o‘zgarish**	**Talabaning asosiy harakati**
Tayanch vazifa	Matematik model va usul berilgan	Usulni mazmunli qo‘llash
Yaqin ko‘chirish	Sonlar, belgilash yoki taqdimot shakli o‘zgargan	Tanish matematik tuzilishni aniqlash
Modelni moslashtirish	Yangi cheklov yoki qo‘shimcha shart kiritilgan	Model va yechimni qayta tekshirish

Kontekstni o‘zgartirish	Boshqa kasbiy mazmun berilgan	Umumiy matematik munosabatni topish
Mustaqil ko‘chirish	Usul ko‘rsatilmagan, ma’lumotlarni tanlash talab etiladi	Model tuzish va qarorni asoslash

Turli vaziyatlarni taqqoslash orqali ulardagi umumiy tuzilish va farqlarni ochish ko‘chirishga tayyorlashning muhim yo‘nalishidir. Birgina kontekst bilan chegaralangan o‘rganish bilimlardan moslashuvchan foydalanishni qiyinlashtirishi mumkin [3].

Matematik bilimlarni ko‘chirishning olti bosqichli metodikasi

Birinchi bosqich - kasbiy vazifani anglash. Talaba vaziyatning maqsadini, berilgan ma’lumotlarni, noma’lumlarni va cheklovlarni ajratadi. Qaysi natija qaror qabul qilish uchun kerakligi aniqlashtiriladi.

Ikkinchi bosqich - tayanch bilimlarni faollashtirish. Vazifa bilan bog‘liq tushunchalar, formulalar va usullar aniqlanadi. Talaba tanlangan bilimning vaziyatga mosligini izohlaydi.

Uchinchi bosqich - matematik model tuzish. O‘zgaruvchilar, o‘lchov birliklari, munosabatlar va farazlar belgilanadi. Matnli axborot formula, jadval, grafik yoki tenglama ko‘rinishiga keltiriladi.

To‘rtinchi bosqich - modelni yechish. Tegishli matematik usul qo‘llanadi. Hisoblashlar bilan birga usulning qo‘llanish shartlari nazorat qilinadi.

Beshinchi bosqich - natijani talqin qilish va tekshirish. Yechimning kasbiy mazmuni, ruxsat etilgan sohaga mosligi va cheklovlarni qanoatlantirishi tekshiriladi. Zarur bo‘lsa, model aniqlashtiriladi.

Oltinchi bosqich - umumlashtirish va refleksiya. Talaba oldingi va yangi vazifa orasidagi umumiylikni, moslashtirilgan qadamlarni hamda usulning qo‘llanish chegaralarini tushuntiradi.

Differensial hisob asosidagi metodik namuna

Quyidagi misollar o‘quv maqsadida tuzilgan shartli vaziyatlardir.

Tayanch topshiriq. Ishlab chiqarish hajmi qq bo‘lganda umumiy xarajat quyidagicha modellashtirilgan:

$$C(q) = 0{,}04q^2 + 4q + 400, \quad 20 \le q \le 200.$$

Bu yerda q - mahsulot miqdori, C(q) - shartli pul birligidagi xarajat. Bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xarajatni eng kichik qiladigan ishlab chiqarish hajmini aniqlash talab etiladi. Dastlab q uzluksiz o‘zgaruvchi sifatida qaraladi.

Talaba maqsad funksiyasini tuzadi:

$$A(q) = \frac{C(q)}{q} = 0{,}04q + 4 + \frac{400}{q}.$$

Uning hosilasi:

$$A'(q) = 0{,}04 - \frac{400}{q^2}.$$

$A'(q) = 0$ tenglamadan $q = 100$ olinadi. $20 \le q < 100$ da hosila manfiy, $100 < q \le 200$ da musbat bo‘lgani uchun minimum $q = 100$ da erishiladi:

$$A(100) = 4 + 4 + 4 = 12.$$

Natija: model doirasida ishlab chiqarish hajmi 100 birlik bo‘lganda o‘rtacha xarajat eng kichik bo‘ladi.

Birinchi o‘zgartirilgan vaziyat. Korxonaning mavjud quvvati bir davrda ko‘pi bilan 80 birlik mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradi.

Endi ruxsat etilgan soha [20;80] bo‘ladi. Oldingi q=100 yechim bu sohaga tegishli emas. $A'(q) < 0$ bo‘lganligi sababli mazkur kesmada funksiya kamayadi va minimum o‘ng chegarada erishiladi:

$$q = 80, \quad A(80) = 3{,}2 + 4 + 5 = 12{,}2.$$

Bu topshiriqda talaba o‘zlashtirgan usulni yangi cheklovga moslashtiradi. Baholashda uning ruxsat etilgan sohani yangilashi va avvalgi yechimni qayta tekshirishi muhimdir.

Ikkinchi o‘zgartirilgan vaziyat. Endi [20;80] oraliqda umumiy xarajatni eng kichik qilish talab etiladi.

Maqsad funksiyasi A(q) o‘rniga C(q) bo‘ladi:

$$C'(q) = 0{,}08q + 4 > 0.$$

Shuning uchun umumiy xarajat q=20 da eng kichik qiymatga ega:

C(20)=496.

Talaba “o‘rtacha xarajatni kamaytirish” va “umumiy xarajatni kamaytirish” turli maqsadlar ekanini tushuntirishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqarish qarorida talab, tushum va majburiy buyurtma kabi omillar ham zarur bo‘lishi mumkinligini qayd etadi.

Uchinchi vaziyat - boshqa kontekstga o‘tish. Qurilmaning bir birlik ishiga sarflanadigan energiya

$E(v) = av + \frac{b}{v}, \quad a > 0,\ b > 0,\ v > 0$ modeli bilan berilgan. Bu yerda v- ish tezligi, koeffitsiyentlar esa tegishli o‘lchov birliklariga ega.

Talaba oldingi masaladagi umumiy matematik tuzilishni aniqlaydi:

$$E'(v) = a - \frac{b}{v^2} = 0 \Rightarrow v = ba.$$

Keyin ushbu qiymat qurilmaning ruxsat etilgan tezlik oralig‘iga mosligini tekshiradi. Bu vazifa boshqa kasbiy mazmunda bir xil matematik tuzilishni tanishga yo‘naltirilgan.

Noto‘g‘ri ko‘chirishni aniqlash

Avval o‘rganilgan usulni uning shartlarini tekshirmasdan qo‘llash noto‘g‘ri natijaga olib kelishi mumkin. Masalan, talaba har qanday optimallashtirish vazifasida hosilani nolga tenglashtirib, chegaraviy nuqtalarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Yuqoridagi quvvat cheklovi kiritilgan topshiriq aynan shu xatoni aniqlashga xizmat qiladi.

Bunday vaziyatlarda quyidagi savollar foydali:

- Oldingi yechimning qaysi sharti o‘zgardi?
- Matematik usulning qaysi qismi saqlanadi?
- Qaysi qadamni qayta bajarish kerak?
- Natijani kasbiy qaror sifatida qabul qilish uchun yana qanday ma’lumot zarur?

Bu savollar asosida yozilgan izohlar talabaning bilimlardan ongli foydalanishini baholash imkonini beradi.

Baholash mezonlari

Bilimlarni ko‘chirishni baholashda hisoblash natijasidan tashqari modelni tanlash va moslashtirish faoliyati ham hisobga olinadi.

Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
Vaziyatni tushunish	Maqsad, ma’lumot va cheklovlarni ajratadi
Matematik tuzilishni aniqlash	Vazifani tegishli tushuncha va munosabatlar bilan bog‘laydi
Model tuzish	O‘zgaruvchilar, birliklar va farazlarni to‘g‘ri belgilaydi
Moslashtirish	O‘zgargan shartlarga ko‘ra model yoki usulni yangilaydi
Talqin va tekshirish	Natijaning amaliy ma’nosi va qo‘llanish chegaralarini tushuntiradi
Mustaqillik va refleksiya	Usulni yordamsiz tanlaydi, xatosini aniqlab tuzatadi

Har bir mezon uchun 0-2 ballik dastlabki rubrika taklif etilishi mumkin: 0 - bajarilmagan yoki noto‘g‘ri; 1 - qisman yoxud yordam bilan bajarilgan; 2 - mustaqil va

asoslangan tarzda bajarilgan. Ushbu rubrika empirik qo‘llashdan oldin ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqilishi va sinov asosida aniqlashtirilishi lozim.

Ko‘chirishning mustaqilligini tekshirishda yangi topshiriqda foydalaniladigan usul oldindan aytilmasligi kerak. Zarur yordam berilsa, uning turi va hajmi qayd etiladi. Mashg‘ulotdan ma’lum vaqt o‘tgach boshqa mazmundagi topshiriqni berish esa natijaning saqlanishini tekshirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Taklif etilgan metodikada matematik bilimlarni ko‘chirish tayanch bilimni faollashtirish, yangi shartlarni anglash va yechimni qayta tashkil etishning birligi sifatida qaraladi. Tezaurusli yondashuv bu jarayonning mazmuniy asosini aniqlashga yordam beradi: talaba tushuncha, munosabat va faoliyat usullarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llaydi [6].

Metodikaning inson kapitali bilan bog‘liqligi kasbiy vazifalarni anglash, bilimlardan moslashuvchan foydalanish va mustaqil o‘rganishga tayyorgarlik orqali ifodalanadi. Ushbu natijalarni rivojlantirish uchun matematika o‘qituvchisi va kasbiy fan o‘qituvchisi topshiriqlarning mazmuni, modeli hamda amaliy cheklovlarini birgalikda muvofiqlashtirishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, kasbiy topshiriqdagi qiyinchilik matematik bilimning yetishmasligi yoki kasbiy atamalarning tushunilmasligidan kelib chiqishi mumkin. Baholashda bu sabablarni farqlash zarur. Model tanlashdagi mustaqillikni tekshirishdan oldin talaba vaziyat matnini va undagi atamalarni tushunganiga ishonch hosil qilish lozim.

Xulosa

Matematik bilimlarni yangi kasbiy vaziyatlarga ko‘chirish oliy ta’limda egallangan bilimlarning faoliyatda qo‘llanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan muhim pedagogik vazifadir. Uning asosiy shartlari matematik mazmunni tushunish, vaziyatlarning umumiy tuzilishini aniqlash, modelni o‘zgargan shartlarga moslashtirish va natijani tekshirishdan iborat.

Maqolada taklif etilgan olti bosqichli metodika hamda o‘zgaruvchan topshiriqlar ketma-ketligi ushbu faoliyatlarni maqsadli tashkil etish imkonini beradi. Baholashda usulni tanlash, cheklovlarni hisobga olish, natijani talqin qilish va mustaqillik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratish tavsiya etiladi.

Inson kapitali nuqtayi nazaridan yondashuvning ahamiyati talabalarning bilimlardan foydalanish, yangi vazifalarni o‘zlashtirish va kasbiy qarorlarni asoslash imkoniyatlarini rivojlantirish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. The Human Capital Project: Frequently Asked Questions [Elektron resurs]. – URL: World Bank (murojaat sanasi: 12.09.2026).

2. OECD. Do Adults Have the Skills They Need to Thrive in a Changing World?: Survey of Adult Skills 2023. – Paris : OECD Publishing, 2024. – 199 p. – DOI: 10.1787/b263dc5d-en.

3. National Research Council. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School: Expanded Edition. – Washington, DC : National Academy Press, 2000. – DOI: 10.17226/9853.

4. Barnett S. M., Ceci S. J. When and Where Do We Apply What We Learn?: A Taxonomy for Far Transfer // Psychological Bulletin. – 2002. – Vol. 128, № 4. – P. 612–637. – DOI: 10.1037/0033-2909.128.4.612.

